

XOTIN-QIZLAR SPORTI BO'YICHA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA LOYIHALASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.

Feruza Baxridinovna Muzafarova

BuxDPI Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

muzaffarova13@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada akmeologik ta'limot, bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonini akmeologik yondashuv asosida loyihalashtirish tamoyillari yoritilgan. Akmeologik yondashuv asosida loyihalashtirilgan o'quv-yig'in mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlariga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: akmeologiya, xotin-qizlar sporti, psixologik ta'sir, ijodkorlik, do'stona munosabatlar, loyihalashtirish.

IMPROVING THE EDUCATIONAL PROCESS OF TRAINING WOMEN'S SPORTS SPECIALISTS THROUGH DESIGN BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH.

Feruza Bakhridinovna Muzafarova

*Associate Professor, Department of Theory and Methodology of Physical Culture,
Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philology. (PhD)* muzaffarova13@gmail.com

Abstract: This article describes the acmeological teaching, the principles of constructing the training process of future women's sports specialists based on the acmeological approach. Particular attention was paid to ways to increase the effectiveness of training sessions planned on the basis of the acmeological approach.

Key words: acmeology, women's sports, psychological impact, creativity, friendships, design.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ ЖЕНСКОГО СПОРТА ЧЕРЕЗ ПРОЕКТИРОВАНИЕ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА.

Феруза Бахридиновна Музафарова

Доцент кафедры теории и методики физической культуры БухГПИ д.ф.п.н.

(PhD) muzaffarova13@gmail.com

Аннотация: В данной статье описаны акмеологическое учение, принципы построения тренировочного процесса будущих специалистов женского спорта на основе акмеологического подхода. Особое внимание было уделено путям повышения эффективности учебных занятий, планируемых на основе акмеологического подхода.

Ключевые слова: акмеология, женский спорт, психологическое воздействие, творчество, дружеские отношения, проектирование.

Butun dunyoda ta'lim-tarbiya jarayonlarini akmeologik yondashuv asosida loyihalashtirish va amalga oshirish, nazorat qilish va natijadorlikni oshirish maqsadida olib borilayotgan ishlar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, o'quv-biluv faoliyatini loyihalashtirish, tashkil etib, boshqarish akmeologik yondashuv asosida tashkil etilsa samaradorlikning asosiy omillardan ekanligi yetakchi industrial davlatlarning tadqiqotlarida ham o'z aksini topmoqda. Akmeologik yondashuvning asosini neyrolingvistik dasturlash, ya'ni pedagogik jaryonlarni amaliy psixologik usullar orqali shakllantirish tashkil etadi. Kasbiy mukammallik sohasidagi eng yuqori yutuqlar haqidagi fan "Akmeologiya" deb nomlanadi. Xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuv tamoyillarining joriylanishi ta'lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishning asosiy shartlaridan biridir. Ta'lim-tarbiya jarayoni va o'quv-yig'in mashg'ulotlarini sifat nuqtai-nazardan ma'lum darajada burilish nuqtasi shaxsning kelajakdagi kasbini va undan keyingi maqsadli mutaxassisligini ongli ravishda tanlash vaqtidir. Ta'lim tizimining tashkiliy darajasidagi bu murakkab aqliy jarayon kasbga yo'naltirish tizimlariga mos kelishi kerak. Kasbga yo'naltirish muammosi mantiqan birinchi dolzarb akmeologik muammodir. Shaxsning bu muammoni hal etish uning oldiga ko'plab yangi muammolarni keltirib chiqaradi, asosiy vazifa – tanlangan kasbini egallash vazifasi atrofida guruhlanadi. Ammo bu kasbni o'rganish, uni takomillashtirish va bundan tashqari, professionallik cho'qqilariga erishish uchun juda aniq faoliyatni o'zlashtirishga qaratilgan va faqat ushbu faoliyatda erishilgan samaradorlik darajasi bilan oqlangan sezilarli darajada boshqacha rivojlanish strategiyasi, professionallik darajasi kerak. Shunday qilib, akmeologiya oldida turgan va u tomonidan hal qilinadigan vazifalarning mohiyati, pedagogikadan farqli o'laroq, bo'lajak mutaxassislarda tegishli bilim va ko'nikmalarni yaratish, ya'ni ma'lum bir kasbiy faoliyatning real hayotiy vaziyati sharoitida bevosita qo'llanilishi mumkin. Bu har qanday odam o'z ta'limiga bag'ishlashi mumkin bo'lgan cheklangan vaqt tufayli – har doim muqarrar ravishda har xil faoliyat turlarini tanlash uchun shaxsning imkoniyatlari doirasining torayishi bilan bog'liq. Xuddi shunday faoliyat turlaridan biri bu xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarning faoliyatidir.

Xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarning o'z-o'zini shaxsiy rivojlantirishi uning ongli, mustaqil, maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamlil faoliyatdir. Bu jarayonda ular uchun o'zining kasbiy hamda ijodiy sifatlarini shakllantirishga, mazkur sohadagi salbiy holatlarni bartaraf etishga imkoniyat yaratiladi. Buning uchun bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarda o'zi va o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi lozim.

O'quv-yig'in mashg'ulotlari jarayonida sportchilarga mustaqil rivojlanish imkoniyatini berish orqali ular bilan murabbiylarning o'zaro do'stona, ishchan muloqoti vujudga keladi. Bunday muloqot jarayoni o'z navbatida sportchilarning bilish faolligi va mustaqil rivojlanishlarini vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi. Bu shuni ko'rsatadiki, bo'lajak xotin-qizlar bo'yicha mutaxassis o'zini shaxsiy-kasbiy takomillashtirishi asosida yangi darajaga ko'tarilishga intiladi. Bu esa uning kasbiy axloqiy takomillashuvini ta'minlaydi.

Xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi ularda faollik, mustaqillik, mustaqil bilim olish va o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojini vujudga keltiradi. Bu jarayon bevosita sportchilar bilan muloqot asosida o'quv-yig'in amaliyot bosqichida amalga oshiriladi. O'quv-yig'in mashg'ulotlari jarayoni sportchilarning o'zlarida o'z-o'zini bilish, baholash, nazorat qilish hamda ixtiyoriy takomillashish ehtiyojini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi.

Akmeologik yondashuv asosida tashkil etiladigan o'quv yig'in mashg'ulotlari – murabbiy va sportchilarning rivojlanishini uyg'un tarzda amalga oshiradigan jarayondir. O'quv-yig'in mashg'ulotining har bir ishtirokchisi o'z faoliyati davomida ushbu yondashuv asosida harakatlarini loyihalashtirsa yuqori natijadorlikka olib keladi. Chunki, ushbu yondashuv asosida loyixalashtirilgan o'quv-yig'in jarayonlari murabbiydan shaxsiy kuch-quvvat va bilimlarini sarf qilishni talab etadi. Buning natijasida murabbiy o'zining kasbiy takomillashuvi va sportchilari haqida o'ylay boshlaydi. Shuning uchun ham bo'lajak xotin qizlar sporti mutaxassisining o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishi muhim hisoblanadi. Shunga ko'ra pedagogik – psixologik jarayonlarning tarkibiy komponent va qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda, xotin-qizlarning anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlarini mukammal o'rganishi va jarayonda qo'llay olishi lozim. Bu esa uning pedagogik jarayonlarni bilishi, aniq loyihalashtira olishi va maqsadga muvofiq tarzda tashkil eta olishiga xizmat qiladi.

O'quv-yig'in mashg'ulotlari jarayonida ijodkor (texnika asosida taktikaning har-xil variantlarini qo'dday oladigan) sportchilarning mustaqillik darajasi keskin tarzda oshadi. Shuning uchun ham sportlarning o'z ustlarida ishlay olishlari alohida ahamiyatga ega. Bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassis o'z-o'zini rivojlantirish maqsadida mustaqil bilim olishga kirishar ekan, birinchi navbatda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi kerak. Har bir mutaxassis kasbiy tayyorgarlik jarayonida o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlay olishi lozim. Shunga ko'ra bo'lajak xotin-qizlar sporti mutaxassislari uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- o'zining shaxsiy sifatlarini bilishi va baholay olishi;
- o'z xulq-atvorida nimani o'zgartirish zarurligini aniqlashi;
- o'ziga ta'sir qilish yo'llari va usullarini egallashi kabilar.

Bugungi vaziyatda murabbiyning yuksak pedagogik darajasini nafaqat o'z faniga oid bilimlarni chuqur o'zlashtirganligi, balki sportchilarni ijodkor shaxs sifatida tarbiyalay olishi ham ifodalaydi.

Bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislari sportchilarning o'z rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish, o'zlarini ijodiy rivojlantirishga qaratilgan faoliyatini loyihalashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- sportchilarning o'z dunyoqarashlari va faoliyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish (sport bilan shug'ullanishning xotin-qizlar organizmi, sog'ligiga ta'siri, sport bilan shug'ullanishning ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'siri, sport turining sir-asrorlarini mukammal bilish, Respublika, Jahon, Olimpiya o'yinlari sovrindori bo'lish talablarini o'rganish);

- sportchilarning o'z ehtiyojlari, mayllari, odatlari, layoqatlarini to'g'ri baholay olishlariga imkoniyat yaratish (seleksiya ishlarini tizimli ravishda tashkil etish);

– sportchilarning o‘z sport yo‘nalishiga moyilliklari, qiziqishlari va layoqatlarini aniqlashga ko‘maklashish (seleksiya ishlarini tizimli ravishda tashkil etish);

– sportchilarning o‘z sport tanlovlarini aniqlashlariga xizmat qiladigan fikriy faoliyatlarini kengaytirish (sport turlari klassifikatsiyasi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish: yakka kurash sport turlari, sport o‘yinlari, yengil atletika, gimnastika va hokazo.);

– sportchilarda o‘z-o‘zlarini tarbiyalash, mustaqil bilim olish, rivojlanish hamda takomillashish istagini uyg‘otish (shaxsiy rivojlanishidagi imkoniyatlarini va afzalliklarini tushuntirish);

– har bir sportchini xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga ko‘maklashish maqsadida chuqur o‘rganish (psixologik test va temperament xususiyatlarini o‘rganish orqali);

– sportchilarning o‘zlaridagi muayyan sifatlarni aniqlashlariga xizmat qiladigan metodlar va usullar bilan tanishtirish kabilar.

Buning uchun murabbiy ijodkor va novator bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham bo‘lajak xotin-qizlar sporti bo‘yicha mutaxassislarning o‘z-o‘zlarini ijodiy rivojlantirishlariga erishish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda, birinchi navbatda, sport maktablari, oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida qulay pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish lozim.

Dastlabki pedagogik-psixologik shart-sharoitlar sirasiga:

a) sportchilarda o‘z-o‘zlarini kasbiy takomillashtirish ehtiyojini vujudga keltirish;

b) sportchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini ta‘minlash;

v) O‘zbekiston sport maktablari va xorijiy ta‘lim tizimida mavjud bo‘lgan ilg‘or pedagogik tajribalarni muntazam o‘rganish va tahlil qilish kabilarni kiritish mumkin.

Pedagogik yondashuvlarga tayangan holda ehtiyojni insonning muayyan holati sifatida baholash mumkin. Ehtiyoj ichki turtki sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur holat ularni nimanidir sinab ko‘rishga undaydi. Ehtiyojlarni qondirish jarayoni shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati orqali amalga oshadi. Ehtiyoj inson faolligining manbai hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – shaxsning istaklari va mazkur istaklarni qondirish holatlari orasidagi mutanosiblikni vujudga keltirishdan iborat.

O‘quv-yig‘in faoliyatini amalga oshirish uchun faqatgina ehtiyojning o‘zi yetarli emas. Buning uchun bo‘lajak xotin-qizlar sporti bo‘yicha mutaxassislarning imkoniyatlarini qo‘zg‘atuvchi quvvatlar ham zarur. Ushbu quvvatlar ularning ijodiy jihatdan o‘z-o‘zini rivojlantirishi va aniq faoliyatni amalga oshirishiga ko‘maklashadi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moyilligi ham ularni faollikka undaydi.

Ikkinchi muhim shart – sportchilarning mustaqil ijodiy rivojlanishlarini ta‘minlashdir. Bo‘lajak xotin-qizlar sporti bo‘yicha mutaxassislarning faoliyati tarkibida yo‘naltiruvchi quvvat sifatida uning mayllari namoyon bo‘ladi. O‘quv-yig‘in, sport faoliyatining samarali kechishi va sifatli natijalar berishi, yorqin, kuchli, chuqur kasbiy mayllar mavjud bo‘lgandagina faol harakatlanish istagini tug‘diradi. Bo‘lajak xotin-qizlar sporti bo‘yicha mutaxassis o‘z quvvatlarini to‘liq safarbar qilgan holda qiyinchiliklarni samarali bartaraf etishi, qulay bo‘lmagan sharoitlarda o‘zi uchun rivojlanish imkoniyatini yaratishi, o‘z maqsadi sari qat‘iy intilishi mumkin. Bularning

barchasi sport maktablari va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak xotin-qizlar sporti mutaxassislarining o'quv-biluv hamda kasbiy-pedagogik faoliyatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Agar bo'lajak murabbiylarda bilish qiziqishlari yetarlicha rivojlangan bo'lsa, mazkur jarayon yanada samarali kechadi. Pedagogik va sport faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabat, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ehtiyoji, o'z ijodiy quvvatlari, ta'lim jarayonini loyihalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga intilish, o'zini mutaxassis-pedagog sifatida nimoyon qilish imkoniyatini beradi. Bu o'z navbatida bo'lajak murabbiy-mutaxassislarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish omili sifatida xizmat qiladi. Bu quyidagilarga bog'liq:

- bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarga kasbiy rivojlanish imkonini beradigan qulay pedagogik-psixologik muhitning mavjudligi;
- ishchan hamkorlik muhitini vujudga keltirish uchun birgalikda ishlaydigan ijodiy guruhning shakllantirilganligi;
- pedagogik hamkorlikning rivojlantirilishi;
- ijodiy innovatsion muhitning vujudga keltirilganligi;
- pedagogik amaliyot jarayonida ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagogik jamoa tomonidan yangi g'oyalar va pedagogik loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi;
- innovatsion faoliyat ichki va tashqi bosimlardan xoliligi va mustaqilligining ta'minlanganligi;
- bo'lajak mutaxassislarning iqtidorlari va layoqatlaridan kelib chiqqan holda ularning maqsadga muvofiq tarzda yo'naltirilganligi;
- bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ijodkorlikka muntazam yo'naltirishga qaratilgan pedagogik chora-tadbirlarning ishlab chiqilganligi va tatbiq etilganligi kabilar.

Sport maktablari va oliy ta'lim muassasasida bunday muhitni vujudga keltirish talaba-sportchilarni ijodiy jihatdan rivojlantirish uchun muhim yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarning shuni yaxshi bilishlari kerakki, sportchilarni ijodiy faollikka undovchi muhim omil shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv muhitini to'g'ri tashkil eta olish hamda ularning iqtidorlari, qiziqishlari, layoqatlarini aniq hisobga olgan holda mazkur jarayonni loyihalashtirish bilan bog'liq.

Akmeologik faoliyatga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bir qatorda kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilashda quyidagi yo'nalishlar ham muxim hisoblanadi:

- 1-samarali kasbiy faoliyatning protsessual texnologik jihati;
- 2-samarali kasbiy faoliyatni matematik modellashtirish usulini ishlab chiqish;
- 3-kasbiy mahoratni oshirishning antropotexnik vositalari.

Shunday qilib, akmeologiya o'zining kasbiy faoliyati obyekti bo'lib, uni o'z mahsuldorligini oshirish muammosi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi va o'rganadi, takomillashtirish va kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishning qonuniyatlari va omillarini aniqlaydi. Xotin-qizlar sporti bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonini akmeologik yondashuv asosida loyihalashtirish natijadorlik va samaradorlik kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak mutaxassislarning o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni taqdim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Смирнова Н.З., Бережная О.В. Компетентностной подход в педагогическом образовании. Учебно-методическая пособие./ Красноярск, 2012,- 168с.
2. Толипова Ж.О. Таълим технологиялари. Т. "Ўқитувчи" 2002 йил. 128 б.
3. Ф.Б. Музафарова Важность развития национальных и общекультурных компетенций учащихся в процессе модернизации образования Вестник науки и образования. Научно-методический журнал. 202№-/ №15. Str.51
4. Ф.Б. Музафарова Учебное-пособие. Гимнастика и методика преподавания. 2021 год. 252-с.
5. Ф.Б.Музафарова. Занятия спортом и физической культурой женщин – залог здорового генофонда страны. МОДЕРНИЗАЦИЯ КУЛЬТУРЫ: диалоги о прошлом и настоящем в науке, искусстве, образовании. Материалы IX Международной научно-практической конференции. Самара, 25-26.05.2023, Стр.269-271.
6. Ф.Б. Музафарова. Влияние применения команд и соревнований при изучении мотивации и моторики навыков в физическом воспитании. Проблемы науки, 78-80. 2020